



Hozirgi o‘zbek romanlarida malikalar obrazining badiiy talqini

Matmusayeva Nadira Mamirovna

Andijon davlat universiteti katta o‘qituvchisi

E-mail: nodiraxonim1963@gmail.com

Annotatsiya: Istiqlol davri o‘zbek tarixiy romanlarida tarixiy shaxs va badiiy tafakkur uyg‘unligi, tarixiy-badiiy obraz masalalari tadqiq qilingan bo‘lsa ham, hozirgi o‘zbek romanlarida tarixiy ayol shaxslar –malikalar obrazi va ayol ichki dunyosi tasvirlanishining badiiy talqini, ayol ruhiyatini tasvirlash, voqelik tasvirida tarixiylik va zamonaviylik mushtarakligi kabi masalalar bevosita maxsus tadqiq etilmagan. Zero, hozirgi romanlarda janr tadriji, tarixiy haqiqat va badiiy talqin aspektida o‘rganish ilmiy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maqolada mustaqillik davrida ijodkorlarning hozirgi o‘zbek tarixiy romanlarida ayol shaxsi-malikalar obrazi, badiiy tafakkur uyg‘unligini shakllantiruvchi tasvir vositalari va poetik usullardan foydalanishdagi ijodiy individuallik, tarixiy-badiiy obraz yaratish borasidagi uslubiy izlanishlar, badiiy ifoda uslubidagi o‘ziga xosliklari badiiy dalillar asosida ochib berilgan;

Kalit so‘zlar: badiiy obraz, asar syujeti, kontrast usul, tarixiy haqiqat, poetik usul, individuallik, badiiy ifoda uslubi.

Istiqlol davri romanlarida yangi bir turkum – yurtimiz tarixida nom qoldirgan malikalar mavzusi shakllanayotganligi bilan xarakterlidir. Bu an‘ana otaxon adib P.Qodirovning “Ona lochin vidosi” romani bilan boshlangan bo‘lsa, Risolat Haydarovanning “Javzo”, To‘lqin Hayitning “Vafo malikasi”, Shahodat Isaxonovanning “Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika”, “Bibixonim”, “Gavharshodbegim”, “Nodirai davron” romanlari bilan muvaffaqiyatli davom ettirildi.

A.A.Mashrabovning “Nasriy asarlarda Amir Temur obrazi” maqolasi¹da o‘zbek adabiyotida To‘lqin Hayitning “Vafo malikasi” romani istiqlo davrida yaratilgan asarlar

¹ <https://in-academy.uz/index.php/lion/article/view/1215>



orasida badiiy jihatdan ancha baquvvat va tarix to'g'ri hamda haqqoniy aks ettirilgan asarlar sirasiga kirishi ta'kidlanadi.

Hakim Sattoriyning tarixiy manbalarga tayangan holda ma'lumot berishicha, O'ljoy (O'ljaoy, Kamoloy) Turkon Oqa amir Musoning qizi (amir Qazag'anning nabirasi), amir Husaynning singlisi. Temurbek 1357-58 yillarda unga uylangan va undan Sultonbaxtbegim dunyoga kelgan. Malika 1366 yilda vafot etadi.²

Risolat Haydarovanning “Javzo” romanida hiylagar va beshafqat Hadichabegim (Husayn Boyqaroning xotini), og'ir-vazmin, keng fe'lli Xonoyim (Shayboniyxonning bosh xotini), makkora Qorako'zbekim (Muzaffar Mirzoning xotini, Shayboniyxon g'alabasidan keyin uning nikohiga o'tgan) kabi saroy malikalarining o'ziga xos xarakter qirralari ochib berilgan.

Hadichabegim nomi Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” memuar asarida bir necha o'rinlarda tilga olinib, Sulton Abusaid mirzoning kanizagi bo'lgani, undan Oqbegim otliq bir qizi ham borligi, Husayn Boyqaro haramiga o'tgandan keyin balan martabalarga erishgani, biroq Shayboniyxon tomonidan mahv etilgani haqida muhim tarixiy ma'lumotlar keldiriladi.

Yana Xadichabegim edi. Sulton Abusaid mirzoning g'unchachisi edi, mirzodin bir qizi bor edi, Oqbegim otliq. Iroqta Sulton Abusaid mirzoning shikastidin so'ng Hiriya keldi. Hiriya Sulton Husayn mirzo oldi va sevdi, g'unchachilik martabasidin begimlik martabasiga taraqqiy qildi. So'ngralar xud asru ixtiyor bo'lub edi. Muhammad Mo'min mirzoni aning sa'yi bila o'lturdilar. Sulton Husayn mirzoning o'g'lonlari yog'iqlar, ko'praki muning jihatidin edi. O'zini oqila tutar edi, vale beaql va purgo'y xotun edi, rofiziya ham ekandur. Shohg'arib mirzo bila Muzaffar Husayn mirzo mundin tug'ub edi. (Z.M.Bobur, “Boburnoma”, 152- b.)

Shayboqxondin noshoyist harakot va af'olekim Hiriya sodir bo'ldi, avval bukim chirki dunyo uchun Xadichabegimni Shoh Mansur baxshi ko'targuchiga tutturub, turluk-turluk qiyinlar qildurdi. (Z.M.Bobur, “Boburnoma”, 186- b)

² Сатторий Х. Соҳибқирон абадияти: Тўлд. ва қайта ишланган 2-нашри. 2-китоб. - Т.: «Sharq», 2016. – Б. 77, 403 - 464 б.



“Tarixdan Hadichabegim o‘z hiyla-nayrangi, o‘z manfaati uchun har qanday qabihlikdan tap tortmaydigan ayol sifatida ma’lum. O‘z farzandining taxt tepasiga kelishi yo‘lida har qanday to‘siqlarni yengib o‘tishga, hatto Sultonning eng sevimli nabirasi bo‘lmish Mo‘min Mirzoning bu dunyodan erta ko‘z yumishiga sababchi bo‘lsa-da, o‘z maqsadi yo‘lidan chekinmaydi. O‘z atrofiga vazir-u, ulamolarni, din peshvolarini, bir so‘z bilan aytganda, o‘z manfaati yo‘lida unga sodiq xizmatchilarni to‘playdi. Bu urinishlari Muzaffar Mirzoning taxt tepasida akasi bilan yonma-yon qolishiga olib keladi.”³ Biroq, ana shu kurashlar jarayonida o‘zining yashirin xatti-harakatlari bilan saltanatning yemirilishiga sababchilardan biri bo‘lgan bu ayolning ruhiy holati romanda to‘la ochib berilmagan. Aynan, “Javzo”da tasvirlangan voqealar silsilasida Hadichabegimning qora qilmishlari yanada zalvorliroq tasvirlanishi, Ma’ruf Mirzo – Mo‘min Mirzolarining o‘limi chizig‘i bahonasida o‘z ishining naqadar ayanchli ekanini his qilishi, Mansur baxshiga tuttirib berilgan holatidagi ruhiy iztiroblari, vijdon azobida o‘rtanishlari kitobxon o‘ylarini ostin-ustun qiladigan darajada shiddatliroq aks ettirilsa, “yomonlik jazosiz qolmaydi” degan g‘oyaviy xulosa pafos darajasiga olib chiqilsa, asarning haqqoniyligi, o‘qishliligi yanada ortgan bo‘lar edi.

Sh.Isaxonovanning “Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika” asarida Turkon xotun, Oychechak begim, Beka Sulton, Xonsulton kabi malikalarning obrazlari tasvirlangan bo‘lsa-da, yetakchi planda Turkon xotun gavdalanadi. Tarixiy manbalarda tavsiflanganidek, davlat ishlarida Sulton Muhammad Xorazmshohdan ham ustunlikka intiladi.

Turkon xotun ulug‘ elchi (Chingizxon qabulida bo‘lib qaytgan – izoh dissertantniki) kirishidan sal oldin Sultonga xalifa an-Nosirga qilgan munosabatini eslatgan va bu gal ham yana his-tuyg‘uga berilib, ehtiyotsizlik qilmasligini so‘ragan edi.

Chindan ham Sultonning kalabinlarcha qilgan harakati tufayli o‘tgan yili ulkan Xorazm mamlakati tang ahvolga tushgan, ellik mingga yaqin eng sara lashkarini sovuqda qotirgan Sultonning o‘zi ham ajalidan burun o‘lishiga bir bahya qolgan edi.

³ Ашурова Н. Рисолат Ҳайдарованинг “Жавзо” романида аёллар образи тасвири // ЎзМУ хабарлари, № 1, 2022. – Б. 179-182



- *Malikam, siz, hozir vaziyatni ayol qarichinda o'lchamoqdasiz! – dedi Sulton ulug' elchining oldida mulzam tortganini sezdirmaslik uchun volidasiga ovozini balandlatib.*
- *Vaziyat erkak qarichinda o'lchanganda boshqacha bo'ladurmu? – lablari istehzoli burilganicha, o'g'liga tik qaradi Turkon xotun, - menimcha, har bir tadbir erkak yoxud aql qarichinda emas, aql qarichinda o'lchanmog'i darkor!*
- *Bilamen, siz, hozir xalifa an-Nosirni nazarda tutayotirsiz! Lek Chingizxon birlan o'rtamizda bo'layotgan bul vaziyat tamoman boshqachadur! (Sh.Isaxonova, “Chingizxon tuzog'iga tushgan malika”, 77-6.)*

Tarixiy manbalarda keltirilishcha, “Sulton Bag‘dod xalifasi Nosir bilan ochiq adovatlashishga o‘tadi, elchilarini yaxshi qabul qilmaydi, Xorazmshoh Bag‘dodni egallab, xalifani taxtdan ag‘darishiga shu qadar ishongan ediki, u xalifalik yerlarini bo‘lg‘usi hokimlar, podshohlarga alohida-alohida iqto‘ qilib bo‘lib bergan va shu haqda tavq-yorliqlar yozib, muhr bosgan edi. Ammo qo‘shinlari qattiq bo‘ronda qolib talofatga uchragandan keyingina niyatidan qaytadi va o‘z qilmishidan pushaymon yeydi. Keyinroq yana fikridan qaytib, barcha xutba va tangalardan xalifaning nomini olib tashlash haqida farmon beradi”⁴. Xuddi shu o‘rinda Z.Buniyodovning tarixiy asari tarjimoni Mahkam Mahmud shunday munosabat bildirib o‘tadi: “Lekin Turkon xotunning ko‘rsatmasi bilan Samarqand, Hirot va Xorazmda bu farmon bajarilmagan. Bu fikr haqiqatga yaqin. Chunki, Sultonning onasi Turkon xotun ancha oqila bo‘lib, uzoqni ko‘zlab ish tutgan ko‘rinadi”⁵. Shahodat Isaxonova voqelarning mohiyatiga nisbatan mantiqan yondashib, yuqorida aytib o‘tilgan ikki xil qarashlarning oltin o‘rtaligini ushlashga harakat qilsa-da, ikkinchi jihat, ayniqsa, kichik shahzoda Mengtusshoh, Jahongir, Kuntug‘mishlarning ta’lim-tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullanishi, mas’uliyat bilan qarashi, devonda ilm ahllari, tolibi ilmlar bilan mashvarat, shoirlar bilan mushoiralar o‘tkazishi, ularni mukofotlar bilan rag‘batlantirishi, o‘ttiz chog‘lik olimu fuzalo va san‘at ahllariga o‘z devoni xazinasidan oylik-maosh tayinlashi, diplomatik munosabatlarda elchilarga yaxshi munosabatda

⁴ Бунієдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998. – Б.83.

⁵ Бунієдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998. – Б.83.



bo'lishi, yoshlikdagi dugonasi Ulmongulni bir umr qanoti ostiga olib, muruvvat qilgani tasvirlangan o'rinlarda malikaning ijobiy xislatlari ustuvorlashadi.

“Bibixonim” romanida Bibixonim, Shod Mulk Begim, Xonzoda begim kabi malikalar har birining o'ziga xos xarakter qirralarini shahzodalar, saroy a'yonlari, noibu to'ralar, oddiy xizmatchilar va boshqa turli ijtimoiy qatlam vakillari bilan kechadigan turfa munosabatlar fonida ochib berilishi asarning o'qishliligi, estetik ta'sirchanligini ta'minlay olgan. Adiba Bibixonim obrazini alohida bir mehr bilan talqin qiladiki, oqila, zukko, og'ir-vazmin, yoshi o'tsa ham ayollik jozibasini yo'qotmagan malika timsoli kitobxon mehrini ham qozonishi tabiiy.

- *Ulug' Amirim, - Bibixonimning andishali, sokin ovozi tovlandi. - Chin o'lkasi g'oyat ulkan mamlakatdur. O'rdusi qudratli, elu ulusi haddin ziyod, buni barchamiz yaxshi bilurmiz...*

Bibixonimning so'zlaridan amirlar ham ruhlanib, chehralari yorishdi... Amir Temur Bibixonimning e'tirozli va keskir so'zlarini bo'lmay, yerga qaraganicha eshitardi. Bibixonim amiru beklar, hatto shahzodalarning ham jur'ati yetmaydigan fikrlarni aytmoqda edi.

- *O'rdumiz qudratig'a shubhangiz bormu, bibim?!*

- *Astag'firulloh, ulug' Amirim! Mamlakatimiz qudratini, o'rdumiz salohiyatini kam ko'rmakdin yiroqmen. Biroq qo'shing'a ham dam bermak fursati yetmadimikin degan andesham bor. Surunkali shuncha yil jang qilmoq eng qudratli o'rduni ham toliqtirur. Boz ustig'a, dard chekkaningizga ham ko'p kechmadi. Salomatligingizni batafsil taftishdan o'tkazmoq, Mavlono Tabriziyning ko'rsatmalarini ado etmoq muhimdir, hazratim!* (Sh.Isaxonova, “Bibixonim”, 22-236.)

Sohibqiron yetti yillik yurishdan keyinoq, xordiq chiqarmay turib yana jangga, Xitoyga qarshi otlanmoqchi bo'ladi. Amiru lashkarlar holdan toygan, biroq uning rayini qaytarishga hech kimsa jur'at topolmaydi Bibixonimning o'tkir mushohadasi, uzoqni ko'ra bilishi, teran aql bilan ish tutishi romanning keyingi voqealarida yana ham o'z isbotini topadi.



Sh.Isaxonovanning “Gavharshod begim” romanida mahdi ulyo malika obrazi Shohruh Mirzoga munosib davlat va jamiyat ishlarida zukko va olisni ko‘ra biluvchi, o‘rni kelganda, qat’iyat ko‘rsata biladigan va dushmanga ham tik qarab haqiqatni ayta oladigan oqila siyosatdon, xalq manfaatini ko‘zlagan bunyodkorliklar tashabbuskori, o‘z farzandi arjumandlari va nabira-yu abiralariga mehribon ona (buvi), ilm-ma’rifat ahllariga mehribon va maslakdosh homiy, ba’zan esa, hayot haqiqatlariga dosh berolmay iztirobga botgan ojiza ayol sifatida ishonarli tasvirlangan. Ya’ni yozuvchi Gavharshod begim obrazini talqin qilishda, voqeliklarni ifodalashda kontrast usulidan unumli foydalangan.

Tarixiy manbalarda bayon qilinishicha, Gavharshodbegimning Shohruh Mirzodan uch o‘g‘li va ikki qizi bo‘lgan: Mirzo Ulug‘bek, Boysung‘ur Mirzo, Muhammad Jo‘kiy Mirzo hamda Saodat Sulton Og‘o, Qutlug‘ Turkon Og‘o.

Tarixchi olim Azamat Ziyoyirik tarixiy manbalarga asoslanib, shunday xulosaga keladi: “Gavharshod begimning ilmu ma’rifatga homiylik qilish, bunyodkorlik bilan bog‘liq ishlariga ko‘pdan-ko‘p erkak siyosatchilar havas qilsa arzigulikdir. Uning sa’i harakati bilan Hirotda masjid, madrasa, xonaqoh, Mashhadda masjid, madrasa va qator inshootlar barpo etilgan... Hirotdagi Gavharshod begim madrasasi o‘z davri uchun ham, keyingi zamonlar uchun ham yirik ilm-fan markazi hisoblangan.”⁶

Tarixdan ma’lumki, Shohruh Mirzo eng munosib voris o‘laroq Sohibqiron Amir Temur tuzib qoldirgan buyuk davlatni saqlab qolish va kuchaytirishga, mamlakatda shaharsozlik, hunarmandchilik, savdo, dehqonchilik, ilm-fan, madaniyatni tez sur’atlar bilan rivojlantirishga erishgan.⁷

Ulkan davlatni boshqarish va eng munosib taxt vorisini tanlash masalasi Temuriylar saltanatining eng og‘riqli nuqtasi bo‘lgan deyish mumkin. Bu muammo, hatto 40 yil davomida hammaslak va hamfikir o‘laroq o‘zaro hamkorlikda davlatchilik siyosatini to‘g‘ri olib borishni maqsad qilgan Shohruh Mirzo va Gavharshod begim o‘rtalarida ham ixtilof keltirib chiqargan. Xondamirning yozishicha, - deb bayon qiladi tarixchi Azamat

⁶ Азамат Зиё. Ўзбек аёллари тарих сахнасида. Т.: Фан, 2002. – Б. 40.

⁷ Бу ҳақда қаранг: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, III ҳарфи, Т.: ЎЗМЭ давлат илмий нашриёти, - Б. 218-221 // <https://www.ziyouz.com>



Ziyo, - mardligi va shijoati bilan boshqalardan ustun bo'lgan Muhammad Jo'kiy doimo otasi xizmatida bo'lib, o'z o'rnida Shohruh ham o'g'liga alohida mehr ko'zi bilan qaragan.⁸

Tarixchi Azamat Ziyo Shohruh Mirzoning taxt vorisi sifatida Muhammad Jo'kiy mirzoni tanlashiga Gavharshod begimning qarshilik qilishini “bosh malikaning onalik mehridan ko'ra siyosiy manfaatlar ustun kelganligi bilan bog'liqligi, ya'ni taxt vorisi sifatida nabirasi Alouddavlani ko'zlaganligi”dan deb hisoblaydi. Shahodat Isaxonova esa ayol ijodkor va ona sifatida masalaga boshqacharoq yondashadi va “Gavharshod begim ona sifatida Muhammad Jo'kiyning ruhiy holatini hisobga olgan” degan badiiy talqinni ilgari suradi hamda malika va shahzoda maqomidagi ona-bola o'rtasidagi kuchli ruhiy ziddiyatni tasvirlaydi:

*Shahzodam... Mening quvonchim... – ko'zlariga yosh to'ldi Gavharshod begimning.
– Bilursiz, men sizni hammadin ko'ra...*

- Yolg'on! Hamma gaplaringiz aldov! Quvonchingiz kimligini, hammadin ko'ra kimni yaxshi ko'rishingizni isbotlabsiz, rahmat sizga, validam! Siz uchun kasalvand, noshud, itning keyingi oyog'i, istalmagan paytda dunyoga kelgan bir o'g'il erkanmen! – Jo'kiy mirzo asabiylashganidan bo'yin tomirlari chuvalchangday bo'rtib, kekirdagi o'ynaganicha, malikaga g'azabnok tikildi. – To'xtang, balki tuqqan o'g'lingiz emasdurmen, shunday ermasmu? Yo, Alloh, nega shul fikr avvalroq aqlimga kelmadi erkan-a? Ha, ha, bir bechora kanizakning haromi yetimchasi bo'lsam kerak!

- Astag'firulloh! Allohdin qo'rqung! – o'g'lining ta'nasidan Gavharshod begimning etlarigacha titrab ketdi.

*- Allohdin qo'rqung?! – **Jo'kiy mirzo** yurayotgan yerida shartta to'xtadi, - Menga aytayotirmusiz shul gapni?! Siz, o'zingiz qo'rqasizmu Allohdin?!*

- Men qo'rqamen... – dedi Gavharshod begimning ovozi titrab. (Sh.Isaxonova, “Gavharshodbegim”, 183-b.)

Ruhiy iztiroblar, birin-ketin avlodlarini yo'qotishlar Gavharshodbegimdek irodasi kuchli ayolni ham ruhan yengib qo'yadi, lekin Sh.Isaxonovanning badiiy tafakkuri

⁸ Azamat Ziё. Ўзбек аёллари тарих саҳнасида. Т.: Фан, 2002. – Б. 42.



chizgilarida malika buni sirtiga chiqarmaydi va dushmanga tik boqadi va qatilylik bilan soʻzlaydi.

Malika qoʻllarining uchigacha muzlayotganini his qilib, bir xayol orqasiga qaytmoqchi boʻldi, lekin ichida tugʻyon urayotgan va nashtarga aylanib, boʻgʻiziga qadalayotgan soʻzlar istagiga izn bermadi.

- Nimasi qiziq, olampanoh? – dedi Abusaid mirzoning yuzidagi istehzoli hayratni ilgʻagan malika, - Aslinda, men bergan javob qiziq ermas, siz menga soʻylamoqchi boʻlayotgan muddao qiziq! Shunday ermasmu? Siz soʻygan xoʻrozni men allaqachon part qilib boʻldim. Shul bois, menga ochiqroq soʻylay bering! Muddaongiz ne? Ne boʻlsa-da soʻylang?! Zero, men Yaratganning bul yolgʻonchi va bevafo fanosidin allaqachon etak siltab qoʻygan odammen! Malikaning koʻzlaridagi ogʻriq aralash gʻazabli otashni koʻrgan ulamolar ham, hatto Abusaid mirzoning oʻzi ham bir lahza lol boʻlganicha, qotib qoldi(Sh.Isaxonova, “Gavharshodbegim”, 139-b.)

Romanda Gavharshodbegim bilan bogʻliq voqea-hodisalarning tarixiy-biografik tasviri fonida shahzodalar Boysungʻur Mirzo, Alouddavla Mirzo, Abdullatif Mirzo, malikalar Husn Nigor begim (Mirzo Ulugʻbek rafiqasi), Ruqiya Sulton begim (Alouddavla Mirzoning qizi) kabi tarixiy shaxslarning murakkab taqdirlari oʻquvchini befarq qoldirmaydi.

Hozirgi oʻzbek tarixiy romanlarini oʻqir ekanmiz, yozuvchilarning tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantira olganligi, bunda, avvalo, ularning dunyoqarashi va manbalarga yondashishdagi oʻziga xosligi, malikalarningning his-tuygʻularini taʼsirchan ifodalashda tasviriy vositalardan samarali foydalanganligi, ularning yashash tarzi va orzu istaklarini ishonarli tasvirlarda berishi, psixologik holatlarini tasavvur qilish imkonini beradigan chizgilari asarning qimmatini, yanada badiiy-estetik ahamiyatga ega ekanligini belgilaydi..



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ашурова Н. Рисолат Ҳайдарованинг “Жавзо” романида аёллар образи тасвири // ЎзМУ хабарлари, № 1, 2022. – Б. 179-182
2. Азамат Зиё. Ўзбек аёллари тарих саҳнасида. Т.: Фан, 2002. – Б. 40.
3. Буниёдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998. – Б.83.
4. Isaxonova Shahodat.Bibixonim.Turon malikalari (*tarixiy roman*)/ – Т.: “Ma’rifat bitiklari”, 2022. – 480 b.
5. Isaxonova Shahodat. Gavharshod begim. Т.: Ma’rifat bitiklari, 2023. – 320 b.
6. Isaxonova Shahodat. Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika. – Т.: “Sano standart” nashriyoti, 2018. –480 b.
7. Сатторий Ҳ. Соҳибқирон абадияти: Тўлд. ва қайта ишланган 2-нашри. 2- китоб. - Т.: «Sharq», 2016. – Б. 77, 403 - 464 б.
8. Ҳайит Тўлқин. Вафо маликаси. Роман.(Тўлдирилган иккинчи нашри)// – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2005. – 215 б.
9. Ҳайдарова Р.Жавзо (тарихий роман)// – Тошкент: Ғафур Ғулом НМИУ, 2011. – Б.50.26